

тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармонининг биринчи иловаси 86-мақсадида, иккинчи иловаси “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”да амалга оширишга оид” Давлат дастурининг 154 банди, 86-мақсаднинг 312-313-314-бандларида юқорида санаб ўтилган муаммоларнинг ечимини топишмасалалари ўз аксини топган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди
2. www.lex.uz – Ўзбекистон республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси
3. Абдураҳмонов Қ.Х. “Меҳнат иқтисодиёти назария ва амалиёт” Т.: “ФАН” Нашриёти – 2019 й.
4. Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобоназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг назарий ва амалий асослари. Т.: 2018. 89 б.

XALQARO MIGRATSIYASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Voxidova Mehri Xasanovna

PhD., dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kafedra mudiri

Habibullayev Komiljon Murodulla o’g’li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Global migratsiya azaliy hodisa bo’lib, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, demografik va boshqa omillar bilan izohlanadi. Bu omillar o’zaro bog’liq hamda bir-biriga ta’sir qilib shaxslar va jamoalarning migratsiya qarorlarini shakllantiradi, migratsiyaning ahamiyatini ochib beradi.

Inson kapitali oqimini o’rganishning nazariy-ilmiy asoslari 1932 yilda, Jon Xiks “sof iqtisodiy afzallikdagi farqlar, ish haqidagi tafovutlar migratsiyaning asosiy sabablari” ekanligini ta’kidlaganida boshlangan[1].

Everett Lining fikriga ko’ra, migratsiya jarayonlari turtki beruvchi kuchlar “salbiy (hududni tark etish sababi)” va “ijobiy (hududga ko’chish sabablari)” omillariga bo’ysunadi[2]. Shundan kelib chiqqan holda odamlar migratsiyani o’z vatanlarida mavjud bo’lmagan imkoniyatlardan foydalanish uchun qabul qilgan oqilona qarori sifatida qarash mumkin.

Migratsiyani harakatlantiruvchi ijobiy kuch omillariga yaxshi tibbiy muassasalar, diniy bag’rikenglik va ta’qiblardan ozodlik kabi ijtimoiy-siyosiy omillar kiradi. Migratsiyaga ta’sir etuvchi ijobiy kuch omillari qatoriga iqtisodiy istiqbollar, turmush darajasi yuqoriligi, ko’proq daromad olish istagi kabilarni ham ko’rishimiz mumkin[3].

O’z mamlakatidan chiqib ketishga majbur qiladigan jihatlar salbiy kuch (hududni tark etish sababi) omillari deb nomlanadi[4].

1-jadval

Migratsiyasini harakatlantiruvchi kuchlar va rag'batlantiruvchi omillar

Soha	Salbiy kuch omillari	Ijobiy kuch omillari
Iqtisodiy	Iqtisodiy tengsizlik va kambag'allik Ishsizlik Kam ish haqi Ta'limning yetishmasligi Infrastruktura	Yuqori ish haqi Turmush darajasining yaxshilanishi Shaxsiy rivojlanish Bo'sh ish o'rinlari Farovonlik standartlari Mehnat talablari
Ijtimoiy	Diskriminatsiya Yomon tibbiy xizmatlari Ijtimoiy himoyasizlik Sifatsiz ta'lim tizimlari Diniy bag'rikenglik yoqligi	Oilaning qayta birlashishi Etnik vatan Diskriminatsiyadan ozodlik Yaxshiroq tibbiy xizmatlar Ijtimoiy davlat imtiyozlari
Siyosiy	Qarama-qarshiliklar Korruptsiya Yomon boshqaruv Inson huquqlarining buzilishi Terrorizm	Xavfsizlik va himoya Siyosiy erkinlik Demokratiya Siyosiy barqarorlik Insonning fuqarolik huquqlari
Demografik	Tug'ilish ko'rsatkichlari yuqoriligi Aholi qarishi Aholi sonining ko'payishi	Faol aholi zichligi Aholini ta'lim va malakasining yuqori darajasi

Bu jihatda ham migratsiyaga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga ajratish mumkin.

Zanabazar va boshqalar[5] ta'kidlashlaricha tortish omillariga mintqa yoki mamlakatga migrantlarni jalb qiluvchi jihatlar kiradi. Masalan, migratsiyaga ta'sir etuvchi ijobiy omillar qatoriga ishga joylashish imkoniyatlari, ko'proq daromad, yaxshi uy-joy va yuqori turmush darajasi kabi iqtisodiy omillar kiradi.

Altman va Renshonlar[6] tomonidan olib borilgan tadqiqotda mualliflar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillar migratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligi ta'kidlanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik, nisbatan kam rivojlangan mamlakatlardan migrantlarni rivojlangan mamlakatlarga ko'chib o'tishga undaydigan omillardan biri deb izohlaydi.

Karbajal va de Migel Kalvolar[7] ta'kidlashicha, ijtimoiy omillar qatoriga migratsiyani harakatlantiruvchi kuch insonning hayot sifatini yaxshilash istagiga asoslanishini tushuntiradi. Migrantlarga o'zlari va oilalari uchun yaxshiroq tibbiy xizmatlar hamda sifatli ta'lim olish zarurati kabi ijtimoiy omillar ta'sir qiladi.

Chandler va Tsailar[8] fikriga ko'ra, demokratiya, siyosiy erkinlik va siyosiy inqiloblar kabi hodisalar ko'pincha odamlarni xavfsiz siyosiy muhitga ega mintaqalarga ko'chib o'tishga undaydi. Xavfsiz yashashga intilish boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tish qarorlariga turtki bo'ladi[9].

H. Ibrahim, F. Z. Al Sharif va boshqalar[10] ta'kidlashicha rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o'rinlarining yetishmasligi va aholining haddan tashqari

ko'pligi rivojlangan mamlakatlarga migratsiyani kuchayishiga olib keladi[11]. O'z vatanida yuqori bo'lmagan turmush darajasi migratsiyani rag'batlantiruvchi yana bir omildir. Migrantlar o'zi va oilasi turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlarini izlab boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tadilar. Rivojlangan mamlakatlar immigrantlar uchun daromad manbaini yaxshilash va mehnat bozoridagi ishtirokini osonlashtirish imkoniyatlarini yaratadi[12].

Yuqorida keltirilgan fikrlar, turli davrlarda insonning yashash sharoitlari va uning xulq-atvor xususiyatlari, birinchi navbatda ehtiyojlari bilan o'zaro ta'siri haqida bildirilgan mulohazalarni tahlil qilish, aholining migratsiyasi sabablarini hech narsa emas, balki individning (uning ehtiyojlari, qarashlari, qadriyatlari) ushbu hodisa bilan o'zaro ta'sir qiluvchi omillarga bo'lgan reaksiyasi ekanligini tasdiqlaydi. Aholining migratsiyasi — bu ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Biroq, uning asosini migrantlar iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga intilishi tashkil qiladi, bu ko'plab olimlar tomonidan tan olingan. Iqtisodiy omillar tashqi mehnat migratsiyasi kabi migratsiyaning o'ziga xos shakli uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi o'n yilliklarda bu jarayonga demografik omillar ham ta'sir ko'rsatmoqda, chunki donor mamlakat va retsiyent mamlakatning demografik potentsiali hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] J. Hicks, *The theory of wages*. Springer, 1963.
- [2] R. Faridi, "Migration Theories: Lee's Push Pull Theory," 2018, Obtenido de Blog de Rashid: un portal educativo: <https://rashidfaridi.com>
- [3] M. J. Carbajal and J. M. de Miguel Calvo, "Factors that influence immigration to OECD member States," *Cuadernos de trabajo social*, vol. 34, no. 2, 2021.
- [4] G. E. A. Siyal, I. Khalid, and A. Qaisrani, *Internal migration and urbanization: a case study from semi-arid regions of Pakistan*. JSTOR, 2018.
- [5] A. Zanabazar, N. S. Kho, and S. Jigjiddorj, "The push and pull factors affecting the migration of Mongolians to the Republic of South Korea," in *SHS Web of Conferences*, EDP Sciences, 2021, p. 01023.
- [6] A. Oltman and J. Renshon, "Immigration and foreign policy," in *Oxford Research Encyclopedia of Politics*, 2017.
- [7] M. J. Carbajal and J. M. de Miguel Calvo, "Factors that influence immigration to OECD member States," *Cuadernos de trabajo social*, vol. 34, no. 2, 2021.
- [8] C. R. Chandler and Y. Tsai, "Social factors influencing immigration attitudes: an analysis of data from the General Social Survey," *Soc Sci J*, vol. 38, no. 2, pp. 177–188, 2001.
- [9] L. H. Abdou, "Push or pull? Framing immigration in times of crisis in the European Union and the United States," in *Crisis and Politicisation*, Routledge, 2021, pp. 34–49.
- [10] H. Ibrahim, F. Z. Al Sharif, K. P. Satish, L. Hassen, and S. C. Nair, "Should I stay or should I go now? The impact of 'pull' factors on physician decisions to remain in a destination country," *Int J Health Plann Manage*, vol. 34, no. 4, pp. e1909–e1920, 2019.
- [11] P. Hatch, "What motivates immigration to America," *The League of Women Voters*. Available online: <https://docplayer.net/20795057-What-motivates-immigration-to-america-by-patricia-hatch.html> (accessed on 23 May 2021), 2016.
- [12] J. Llull, "The effect of immigration on wages: exploiting exogenous variation at the national level," *Journal of Human Resources*, 2017.